

“BAXTLI YUZLIK” rag‘batlantiruvchi aksiyasida
qatnashish bo‘yicha
OMMAVIY OFERTA

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ushbu Ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda – “Oferta”) “BAXTLI YUZLIK” nomi ostida HUMO milliy to‘lov tizimi kartalari sohiblari uchun rag‘batlantiruvchi aksiya (keyingi o‘rinlarda – “Aksiya”)ni o‘tkazish va unda qatnashish tartibi, shartlarini belgilaydi.

1.2. Aksiya tashkilotchisi – “Milliy banklararo protsessing markazi” aksiyadorlik jamiyati, HUMO milliy to‘lov tizimi operatori (keyingi o‘rinlarda – “Tashkilotchi” yoki “MBPM”) sanaladi. Tashkilotchi Aksiyani tashkil etish va o‘tkazishni, mukofot jamg‘armasini shakllantirishni, yutuqli o‘yinlar o‘tkazilishini, g‘oliblarni aniqlashni, sovrinlar topshirishni, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilgan holatlarda soliq agenti majburiyatlarini bajarishni mustaqil ta‘minlaydi, shuningdek ushbu Ofertada ko‘zda tutilgan boshqa majburiyatlarga ega. Tashkilotchi ushbu Ofertaga qo‘shilgan Axborot hamkorlarini jalb qilish huquqiga ega. Axborot hamkorlari Aksiyada faqat ushbu Ofertada belgilab berilgan huquq va majburiyatlar doirasida qatnashadilar.

1.3. Aksiyaning axborot qo‘llab-quvvatlovi uchun Tashkilotchi Axborot hamkorlarini, jumladan banklar, to‘lov tashkilotlari va boshqa yuridik shaxslarni jalb qilish huquqiga ega. Axborot hamkorlari Tashkilotchi maqomiga ega bo‘lmaydi va, agar ushbu Ofertada boshqa holatlar ko‘zda tutilgan bo‘lmasa, Aksiyani o‘tkazish funksiyasini amalga oshirmaydi.

1.4. Aksiya O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘tkaziladi va HUMO kartalaridan foydalangan holda tovarlar va/yoki xizmatlar haqini naqdsiz to‘lashni rag‘batlantirishga qaratilgan.

1.5. Aksiya lotereya, qimor, bas boylashuv yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa faoliyat turi sanalmaydi, qatnashish uchun alohida to‘lov kiritishni talab qilmaydi va Qatnashchi tomonidan Tashkilotchiga biror-bir badal kiritish bilan bog‘liq emas.

1.6. Aksiyada qatnashish bepul, ixtiyoriy bo‘lib, ushbu Oferta shartlarida amalga oshiriladi. Qatnashchi tomonidan Ofertaning 6-bo‘limida ko‘zda tutilgan harakatlarning amalga oshirilishi Oferta shartlarini to‘liq va so‘zsiz qabul qilish sanaladi.

1.7. Aksiya doirasida mukofotlarni to‘lash va/yoki taqdim etish tovarlar, ishlar yoki xizmatlar haqini to‘lash sanalmaydi. Qatnashchiga moddiy yordam sanalmaydi va faqat Tashkilotchining rag‘batlantiruvchi tadbiri doirasidagina amalga oshiriladi.

1.8. Ofertaning amaldagi tahriri, Aksiya to‘g‘risidagi axborot, muddatlar, mukofotlar, qatnashish tartibi, yutuqli o‘yinlar o‘ynalishi tartibi, shuningdek qatnashchilar va g‘oliblarning Ofertada ko‘zda tutilgan hajmdagi ro‘yxati Tashkilotchining rasmiy axborot resurslarida MBPMning www.humocard.uz rasmiy saytida joylashtiriladi va/yoki Aksiyaning @HumoNestBot rasmiy Telegram-boti orqali tanishishga ochiq bo‘ladi, shuningdek Axborot hamkorlarining rasmiy axborot resurslarida joylashtirilishi mumkin.

1.9. Ushbu Oferta va reklama materiallarida, axborot xabarlarida, nashrlarda, axborot hamkorlarining materiallarida, push-bildirgilarda, Telegram-botda yoki boshqa axborot manbalarida joylashtirilgan ma‘lumotlar o‘rtasida nomuvofiqlik kuzatilganda, ushbu Oferta qoidolari qo‘llaniladi.

1.10. Tashkilotchi Aksiya to‘g‘risidagi axborotni o‘zbek, rus va boshqa tillarda chop etish huquqiga ega. Til talqinlari o‘rtasida nomuvofiqlik kuzatiladigan bo‘lsa, agar Tashkilotchi tomonidan boshqa holat to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilgan bo‘lmasa, Ofertaning o‘zbek tilidagi talqini ustuvorlikka ega sanaladi.

2. Atamalar va tushunchalar

Atama	Ta'rif
Aksiya	tashkilotchi tomonidan ushbu Oferta shartlarida o'tkaziladigan "BAXTLI YUZLIK" rag'batlantiruvchi aksiyasi.
HUMO kartasi	HUMO to'lov tizimi qatnashchisi bo'lgan bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarilgan HUMO milliy to'lov tizimining faol bank kartasi (jismoniy, virtual, kobeyjing).
Qatnashchi	faol HUMO kartasi sohibi bo'lgan va Oferta shartlari asosida hisobga olinadigan amaliyotni amalga oshirgan 18 yoshga to'lgan layoqatli jismoniy shaxs.
Amaliyot /Tranzaksiya	HUMO kartasi orqali POS- va/yoki ePOS-terminalda tovar va/yoki xizmatlar haqini to'lash bo'yicha Oferta 6-bo'limi shartlariga muvofiq keluvchi sarf amaliyoti.
Aksiya muddatlari	aksiyada qatnashish muddati – Qatnashchilar amaliyotlari hisobga olinadigan muddat – Qatnashchilarning amaliyotlari hisobga olinadigan va yutuqli o'yinlarda qatnashish uchun imkoniyat taqdim etiladigan Aksiya o'tkazilishi muddatlari. Yutuq o'ynalishi muddati – Tashkilotchi jonli efir o'tkazadigan va g'oliblarni aniqlaydigan muddat. Yutuq o'ynalishi sanalari alohida belgilanadi va Aksiya qatnashish muddatiga kirmaydi. Mukofotlarni qabul qilish muddati – g'oliblari hujjatlarni taqdim etib, mukofotlarni olish huquqiga ega bo'lgan muddat.
Bosqich	ketma-ket keluvchi muddatlardan biri bo'lib, uning yakuniga ko'ra keyingi yutuq o'ynalishi qatnashchilarining ro'yxati shakllantiriladi. Har bir bosqich 10 kalendar kuniga teng. Jami bosqichlar soni – 6 ta.
Imkoniyat	ushbu Ofertaning 6-bo'limida belgilangan tartibda va undagi cheklovlar inobatga olingan holda navbatdagi aksiya bosqichi davomida hisobga olinadigan bitta (100 ming va undan katta) amaliyot uchun shakllanadigan yutuq o'ynalishida qatnashishning shartli birligi.
Bot	qatnashishni tekshirish, Aksiya haqida axborot olish, qatnashchilar va g'oliblar ro'yxatini ko'rish, shuningdek alohida bildirgilarni yo'llash uchun ishlatiladigan Aksiyaning rasmiy @HumoNestBot Telegram-boti.
Axborot hamkori	ushbu Oferta shartlariga rozilik bildirgan va ushbu Ofertada nazarda tutilgan tartib va shartlar asosida Aksiyaning axborot jihatdan qo'llab-quvvatlovchi yuridik shaxs.
Amaldagi telefon raqami	imkoniyat taqdim etilganda SMS-xabar berish uchun biriktirilgan va emitent-bank/to'lov tizimi tizimlarida HUMO kartasiga bog'langan hamda Tashkilotchiga Qatnashchini identifikatsiyalash va g'olib bo'lgan taqdirda u bilan bog'lanish imkonini beruvchi O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan mobil aloqa abonentining faol raqami.
Qatnashchilar ro'yxati	Tashkilotchi tomonidan shakllantirilgan, tegishli yutuq o'ynalishiga ruxsat berilgan Qatnashchilar imkoniyatlari/yozuv hisoblarining g'oliblarni tasodifiy tanlashda ishlatish uchun noyob tartib raqami biriktirilgan ro'yxati.
G'oliblar ro'yxati	tegishli yutuqli o'yin yakunlari bo'yicha g'oliblarning ismlar yashirilgan ko'rinishdagi ro'yxati.
Yutuqli o'yin	Tashkilotchining rasmiy resurslarida g'oliblarni random.org servisdan foydalanib, tasodifiy tanlov usulida jonli efirda aniqlash taomili.
Komissiya	yutuq o'ynalishlarini tayyorlash va o'tkazishning shaffofligini ta'minlash uchun buyruq/bayonnoma asosida tuziladigan Tashkilotchining ishchi guruhi.
G'olib	kartasi/imkoniyati yutuq o'ynalishi yakunlariga ko'ra g'olib deb aniqlangan va Tashkilotchining qo'shimcha tekshirishiga ko'ra Oferta shartlariga muvofiq keladigan qatnashchi.
Zaxiraviy g'olib	Ushbu Ofertada ko'zda tutilgan holatlarda va tartibda asosiy g'olibga bosh mukofotni topshirish imkonsiz bo'lganda Aksiya bosh mukofoti (avtomobil) o'ynalishini o'tkazishda aniqlangan qatnashchi.
Mukofot jamg'armasi	Aksiya doirasida o'ynaladigan pulli va pul ko'rinishida bo'lmagan mukofotlar yig'indisi.

3. Aksiya o'tkazilishi muddatlari

3.1. Aksiya o'tkazilishi muddati: 2026-yil 15-iyul soat 09:00 dan to 2026-yil 12-sentyabr soat 23:59 gacha (shu sana ham kiradi) – agar Ofertada ko'zda tutilgan tartibda Tashkilotchi tomonidan boshqa sanalar tasdiqlanib, e'lon qilinmasa.

3.2. Aksiya o'tkazilishi muddati 6 (olti)ta bosqichdan iborat. Har bir bosqich tegishli yutuq o'ynalishi qatnashchilarining ro'yxatini shakllantirish uchun qo'llaniladi. Bosqichlarning va yutuq o'ynalishlarining aniq sanalari Ofertaning 9-bo'limi jadvalida ko'rsatiladi.

3.3. Har bir bosqich yakunlanganidan keyin Tashkilotchi ma'lumotlarning texnik qayta ishlanishi, amaliyotlar tekshirilishi, Oferta shartlariga muvofiq kelmaydigan amaliyotlarni istisno etish, qatnashchilar ro'yxatining shakllantirilishi va ommaviy yutuq o'ynalishi uchun materiallar tayyorlanishini amalga oshiradi.

3.4. Bosqich yakunlanganidan keyin texnik tayyorgarlikning taxminiy muddati 2 (ikki) kundan 3 (uch) kungacha tashkil qiladi. Texnik, tashkiliy, bank, protsessing yoki boshqa obyektiv sabablar mavjud bo'lganda, Tashkilotchi ushbu muddatni uzaytirish huquqiga ega.

3.5. Yakuniy sanalar va jonli efirlar vaqti, agar texnik holatlar boshqa muddatni taqozo etmasa, Tashkilotchi tomonidan rasmiy resurslarda va/yoki @HumoNestBot botida tegishli yutuq o'ynalishidan kamida 1 (bir) ish kuni oldin e'lon qilinadi.

4. Aksiya qatnashchilari

4.1. Aksiyada malakalanadigan tranzaksiyani amalga oshirish va Aksiyada imkoniyatga ega bo'lish sanasiga 18 yoshga to'lgan, O'zbekiston Respublikasi hududidagi HUMO to'lov tizimi qatnashchisi bo'lmish banklar chiqargan HUMO faol kartalarining sohiblari bo'lgan layoqatli jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin.

4.2. Karta yutuq o'ynalishi uchun ro'yxat shakllantirilayotgan vaqtda O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan amaldagi telefon raqamiga biriktirilgan bo'lishi sharti bilan, Oferta shartlariga muvofiq keluvchi amaliyot bajarilgan HUMO kartasining sohibi qatnashchi sanaladi. Qatnashchi bunday telefon raqamning dolzarbligini, uning Qatnashchiga tegishliligini va Aksiya o'tkaziladigan butun davr mobaynida, shuningdek mukofot topshirish taomillari to'liq yakunlanguniga qadar, unga bog'lanish mumkinligini mustaqil ta'minlashi lozim.

4.3. O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan, SMS-xabarnoma xizmati ulangan Amaldagi telefon raqami biriktirilgan HUMO kartalarigina yutuqlar o'ynalishiga qo'yiladi. Bunday raqamning mavjudligi Qatnashchini identifikatsiyalash, uning ishtirokini tekshirish va keyinchalik G'olibni xabardor uchun zaruriy shart hisoblanadi.

4.4. G'olib bilan aloqa Tashkilotchi tomonidan g'olib bo'lgan HUMO kartasiga biriktirilgan telefon raqamiga, yutuq o'ynalishining yakuniy natijalari chop etilgandan keyin 3 ish kuni davomida g'olibni xabardor qilish uchun kamida 3 ta telefon qo'ng'irog'ini amalga oshirish orqali bajariladi. Qatnashchi noto'g'ri, ishlamaydigan, ulanib bo'lmaydigan, o'zgartirilgan, dolzarb bo'lmagan yoki o'ziga tegishli bo'lmagan telefon raqami bo'lgani tufayli u bilan bog'lanib bo'lmashligi xatari uchun mustaqil javob beradi.

4.5. Tashkilotchi tekshiruvdan o'tish, kerakli hujjatlarni taqdim etish va o'yindan chiqarish uchun asoslar bo'lmashligi sharti bilan, yutuqli imkoniyat hisoblangan HUMO kartasining sohibi g'olib sanaladi.

4.6. Aksiyada qatnashish maxsus mahsulotni sotib olishni, ro'yxatga olish badalini to'lashni yoki Ofertada ko'zda tutilgan HUMO kartasi orqali tovarlar va/yoki xizmatlar haqini to'lash amaliyotidan boshqa biror-bir amallarni talab qilmaydi.

4.7. Axborot hamkorlari Aksiya g'oliblarini aniqlamaydilar.

4.8. Axborot hamkorlarining axborot resurslarida Aksiya to'g'risidagi axborotni joylashtirish faqatgina Aksiyaning potensial qatnashchilarini xabardor qilish uchun amalga oshiriladi.

5. Qatnashishni cheklash

5.1. Aksiyada Tashkilotchining xodimlari, shuningdek ularning yaqin qarindoshlari (turmush o'rtog'i, ota-onasi, farzandlari, tug'ishgan aka-uka va opa-singillari) qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi.

5.2. Agar yutuq o'ynalishi davomida Tashkilotchining xodimi yoki uning yaqin qarindoshi g'olib deb topilsa, bunday Qatnashchi darhol bu haqda Tashkilotchi Marketing va PR departamentini xabardor qilishi lozim.

5.3. Tashkilotchining xodimi yoki uning yaqin qarindoshi g'olib deb topilgani fakti aniqlangan holatda, bunday Qatnashchi g'oliblar safidan chiqariladi. Agar bekor qilingan yutuq pul mukofoti yoki smartfon bo'lsa, tegishli mukofot Aksiyaning yakuniy bosqichida takroriy o'ynalishi

lozim bo'ladi. Agar bekor qilingan yutuq bosh mukofot bo'lsa, ushbu Ofertaning zaxiraviy g'olib to'g'risidagi qoidalar qo'llaniladi.

5.4. Aksiyada korporativ kartalar, biznes-kartalar, yuridik shaxslar va xususiy tadbirkorlar kartalari, bolalar kartalari, voyaga yetmaganlarning qo'shimcha kartalari, shuningdek Oferta shartlariga zid keluvchi boshqa kartalarning qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi.

5.5. Tashkilotchi qalloblik, Aksiya mexanikasini suiiste'mol qilish, texnik xato, amaliyot bekor qilinishi, qaytarish, bahsli amaliyot, to'lov tizimi qoidalarining buzilishi yoki qatnashishning to'g'riligiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa holatlarning belgilari aniqlanganda amaliyot va/yoki kartani qatnashishga qo'ymaslik yoki mukofotga da'vogarlar hisobidan chiqarish huquqiga ega.

5.6. Qatnashchi qatnashish huquqini, imkoniyatni, yutuqni, mukofotni talab qilish huquqini yoki mukofotni olish huquqini uchinchi shaxslarga berish huquqiga ega emas, qonunchilikda to'g'ridan-to'g'ri ko'zda tutilgan va Tashkilotchi bilan yozma ravishda kelishilgan holatlar bundan mustasno.

6. Qatnashish tartibi va hisobga olinadigan amaliyotlar

6.1. Aksiyada qatnashish uchun Qatnashchi tegishli hisob muddati davomida HUMO kartasi orqali kamida bir marta, bitta amaliyotda 100 000 (yuz ming) so'mlik tovarlar va/yoki xizmatlar haqini to'lash amaliyotini bajarishi lozim.

6.2. Faqat HUMO kartasi orqali POS-terminallar va/yoki e-POS-vositalar orqali o'tkazilgan tovarlar va/yoki xizmatlar haqini to'lashga oid, muvaffaqiyatli o'tkazilgan va bekor qilinmagan sarf amaliyotlari, jumladan QR-kod orqali yoki to'lov ilovalari orqali to'lovlar (agar bu amaliyotlar savdo-servis korxonasida tovar/xizmat uchun to'lov sifatida qayta ishlansa) hisobga olinadi.

6.3. Aksiya maqsadlari uchun 100 000 so'mdan boshlanadigan summadagi bitta hisobga olinadigan amaliyot, agar muayyan bosqich qoidalariga boshqa holat yaqqol ko'rsatilgan bo'lmasa, tegishli yutuq o'ynalishida qatnashish uchun imkoniyatni shakllantiradi.

6.4. Agar amaliyot summasi 100 000 so'mdan kam bo'lsa, bunday amaliyot hisobga olinmaydi va yutuq o'ynalishida qatnashish imkoniyatini shakllantirmaydi.

6.5. Aksiyaning har bir bosqichida Qatnashchiga, u tomonidan ushbu Oferta shartlariga muvofiq keluvchi nechta amaliyot amalga oshirilganidan qat'i nazar, bittadan ko'p bo'lmagan imkoniyatni berilishi mumkin. Har bir keyingi bosqichda qatnashish shartlari bajarilganida Qatnashchiga yana bir imkoniyat beriladi. Aksiyaning barcha bosqichlarida Qatnashchi olgan imkoniyatlar jamlanadi va yakuniy yutuq o'ynalishida hisobga olinadi. Yakuniy yutuq o'ynalishida hisobga olinishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar maksimal miqdori 6 (olti)tani tashkil qiladi.

6.6. Amaliyotlar ularning Tashkilotchi va/yoki emitent-bank protsessing tizimlarida amalda qayta ishlalinishi sanasi va vaqtiga ko'ra hisobga olinadi. Ma'lumotlarda tafovut mavjud bo'lganda Tashkilotchi protsessing tizimi ma'lumotlari ustuvorlikka ega bo'ladi.

6.7. Aksiya maqsadlari uchun Tashkilotchi protsessing tizimining noyob identifikatoriga ega amaliyot noyob sanaladi. Bir xil identifikatorli amaliyotlar texnik takror sanaladi va yutuq o'ynalishiga qo'shilmaydi.

6.8. Tashkilotchi qatnashish maqomida 60 daqiqadan boshlanadigan, lekin 72 soatdan ko'p bo'lmagan texnik kechiktirish o'rnatish huquqiga ega. Botdagi axborot amaliyot bank, to'lov tizimi va Tashkilotchining ichki tizimlari tomonidan qayta ishlangandan keyin yangilanishi mumkin.

6.9. Hisobga olinmaydigan amaliyotlar

Quyidagi amaliyotlar aksiya maqsadlari uchun hisobga olinmaydi:

- kartadan-kartaga P2P-o'tkazmalar yoki jismoniy shaxslar o'rtasidagi boshqa o'tkazmalar;
- naqd pul yechib olish, jumladan bankomatlar, kassalar va POS-terminallar orqali amaliyotlar;
- kirim amaliyotlari, kartani to'ldirish, hisobni to'ldirish, elektron hamyonlarni to'ldirish;
- omonatlar, bank hisoblari bo'yicha amaliyotlar (yechib olish/to'ldirish);

- komissiya amaliyotlari;
- valyuta ayirboshlash, konvertatsiya, valyuta xarid qilish/sotish amaliyotlari;
- avtoyechib olish, muntazam, rekurrent va obunali to'lovlar – agar Tashkilotchi ularni alohida tarzda hisobga olinuvchi amaliyotlarga kiritmasa;
- qaytarishlar, qisman qaytarishlar, bekor qilingan, e'tiroz bildirilgan va bahsli amaliyotlar;
- xato, qalloblik, texnik takror yoki HUMO to'lov tizimi qoidalarini buzgan holda amalga oshirilgan deb topilgan amaliyotlar;
- Tashkilotchi tovar/xizmat uchun haq to'langani faktini yoki kartaning Qatnashchiga tegishli ekanini aniqlay olmaydigan amaliyotlar.

6.10. Aksiya axborot materiallarini tarqatish boshlangani yoki, agar bunday usul Tashkilotchi tomonidan belgilangan bo'lsa, ushbu Ofertaga qo'shilganligini ko'rsatuvchi boshqa harakatlar bajarilgani Axborot hamkori tomonidan ushbu Ofertaning aksepti deb e'tirof etiladi.

7. @HumoNestBot telegram-boti, ro'yxatga olish va qatnashishni tekshirish

7.1. Aksiyada qatnashishni aniqlash, Aksiya to'g'risidagi axborotni olish, qatnashchilar ro'yxatini va g'oliblar ro'yxatini tekshirish uchun Qatnashchi Aksiyaning @HumoNestBot rasmiy telegram-botida ro'yxatdan o'tishi lozim.

7.2. Botda qatnashish interfeys tilini tanlash, telefon raqamini tasdiqlash va bot interfeysida ko'zda tutilgan boshqa harakatlarni bajarish orqali amalga oshiriladi. Qatnashishni tekshirish uchun Qatnashchi aynan o'zining HUMO kartasiga bog'langan, SMS-xabarnoma xizmati birlashtirilgan telefon raqamini tasdiqlashi lozim.

7.3. Telefon raqami Tashkilotchi tomonidan faqatgina Qatnashchini identifikatsiyalash, qatnashish maqomini tekshirish, tasdiqlangan raqamga bog'langan kartalarni aks ettirish, Aksiya to'g'risida xabarnomalarni yuborish va g'alaba qozongan taqdirda G'olib bilan bog'lanish uchun qo'llaniladi.

7.4. Bot Tashkilotchiga tekshirish vaqtida ochiq bo'lgan ma'lumotlar asosida qatnashish maqomi to'g'risidagi axborotni aks ettiradi. Bunday axborot ma'lumotnoma xarakteriga ega bo'lib, tranzaksiyalarni qayta ishlash, ma'lumotlarni solishtirish va texnik kechikishlarni bekor qilishdan keyin yangilanishi mumkin.

7.5. Agar Qatnashchi Aksiya shartlariga muvofiq keluvchi amaliyotni bajargan bo'lsa-yu, lekin bunday amaliyot hali botda aks etmagan bo'lsa, Qatnashchiga tekshirishni keyinroq takrorlash tavsiya etiladi. Amaliyotning o'sha zahoti botda aks etmasligi, agar amaliyot amalda Oferta shartlariga muvofiq bo'lsa, qatnashish huquqining avtomatik mavjud emasligini anglatmaydi.

7.6. Agar tasdiqlangan telefon raqami bo'yicha Aksiyada qatnashuvchi HUMO kartalari topilmasa, bot tegishli xabarni aks ettiradi. Qatnashchi telefon raqamining to'g'riligini, raqamning kartaga bog'langanligini tekshirish hamda zarurat bo'lganda, emitent-bankga yoki HUMO qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish huquqiga ega.

7.7. Xavfsizlik maqsadlarida Tashkilotchi qurilma o'zgartirilganda, takroriy kirishda, shubhali faollikda, ko'p sonli so'rovlarda va Qatnashchi ma'lumotlarining xavfsizligiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa holatlarda telefon raqamining takroriy tasdiqlashni talab qilish huquqiga ega.

7.8. Bot vaqtincha texnik xizmatda bo'lishi mumkin. Bunday holatlarda Qatnashchi keyinroq so'rovni takrorlashi yoki 1114 raqami yoxud Tashkilotchi ko'rsatgan boshqa kanallar orqali qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilish huquqiga ega.

7.9. Botda joylashtirilgan axborot ushbu Oferta o'rnini bosmaydi. Aksiyaning to'liq qoidalar Tashkilotchining rasmiy resursida/Aksiya lendingida e'lon qilinadi va bot interfeysidagi qisqa ifodalarga bog'lanmagan holda qo'llaniladi.

8. Imkoniyatlarni va qatnashchilar ro'yxatlarini shakllantirish

8.1. Har bir hisob muddati yakuniga ko'ra Tashkilotchi Aksiya shartlariga potensial muvofiq keluvchi amaliyotlarning birlamchi bazasini shakllantiradi.

8.2. Birlamchi baza asosida Tashkilotchi amaliyotlarning texnik va nazorat tekshiruvini o'tkazadi, Oferta shartlariga muvofiq kelmaydigan amaliyotlarni, shuningdek bekor qilish, qaytarish, bahs, texnik takror, qalloblik yoki boshqa noo'rin holatlar belgilari mavjud amaliyotlarni istisno qiladi.

8.3. Aksiyaning navbatdagi bosqichi davrida ilk hisobga olinadigan amaliyotga bitta imkoniyat biriktiriladi, yutuq o'ynalishi maqsadida har bir imkoniyat tegishli yutuq o'ynalishi qatnashchilari ro'yxatida noyob tartib raqamiga ega bo'ladi. Bitta karta uchun imkoniyatlarning maksimal miqdori har bir bosqich uchun bitta imkoniyatni tashkil qilishi mumkin. Aksiyaning barcha bosqichlari uchun imkoniyatlar jamlanadi va yakuniy yutuq yo'nalishida qatnashadi. Yakuniy yutuq yo'nalishida imkoniyatlarning maksimal miqdori – 6 ta imkoniyat.

8.4. Qatnashchilar ro'yxati ommaviy tekshirish uchun shaxssizlashtirilgan/mavhumlashtirilgan ko'rinishda, shuningdek G'oliblarni identifikatsiyalash va qonunchilik talablariga rioya etish maqsadida, ichki nazorat uchun to'liq ko'rinishda shakllantiriladi. Ichki to'liq ro'yxat ommaviy e'lon qilinmaydi.

8.5. Qatnashish uchun Qatnashchi @HumoNestBot'da ro'yxatdan o'tadi va telefon raqamini tasdiqlaydi. Tekshirishdan keyin bot tasdiqlangan raqamga bog'langan HUMO kartalarini, qatnashish maqomini, bosqichni, imkoniyatlar soni va/yoki Tashkilotchi tizimida ochiq bo'lgan boshqa axborotni aks ettiradi.

8.6. Yutuq o'ynalishi qatnashchilarining ro'yxati botda mavhumlashtirilgan ko'rinishda joylashtirilishi mumkin. Mavhumlashtirish kartaning oxirgi to'rtta raqamini, noyob ID-yozuvni, bosqich raqamini, imkoniyatlar soni yoki qatnashishni mustaqil tekshirish uchun yetarli boshqa mavhumlashtirilgan belgilarni o'z ichiga olishi mumkin.

8.7. Ommaviy yutuq o'ynalishi boshlanguniga qadar Komissiya tegishli yutuq o'ynalishi qatnashchilarining yakuniy ro'yxatini, imkoniyatlar umumiy sonini va random.org'da ishlatiladigan tartib raqamlar diapazonini qayd etadi.

8.8. Har bir yutuqli o'yin qatnashchilarining yakuniy ro'yxati Komissiya tomonidan tegishli bosqichning oxirgi kalendar kuni soat 23:59:59 qo'shuv Ofertada ko'zda tutilgan texnik qayta ishlash davri holatiga qayd etiladi. Yakuniy ro'yxat tasdiqlanganidan keyin unga o'zgartishlar kiritilmaydi, Ofertada to'g'ridan-to'g'ri ko'zda tutilgan asoslarga ko'ra imkoniyatlarni bekor qilish holatlari bundan mustasno.

8.9. Agar qatnashchilar ro'yxati shakllantirilgandan keyin amaliyot bekor qilinsa, qaytarilsa, bahsli, xato, qalloblik yoki Aksiya shartlariga nomuvofiq deb topilsa, tegishli imkoniyat istisno qilinishi, bu imkoniyat bilan bog'liq natija esa bekor qilinishi mumkin.

8.10. Tashkilotchi qatnashchilarning ichki ro'yxatlarini, ro'yxatlarni shakllantirish bayonnomalarini va Aksiyaning boshqa materiallarini Tashkilotchining ichki hujjatlarida hamda daxldor qonunchilikda belgilangan muddat davomida saqlashni ta'minlaydi.

Diqqat: kartaning yutuq o'ynalishiga yo'l qo'yilishi uchun karta O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan, SMS-xabarnoma xizmati ulangan Amaldagi telefon raqamiga ega bo'lishi lozim. Tashkilotchi ushbu raqam orqali G'olib bilan bog'lanadi.

9. Mukofot jamg'armasi va yutuq o'ynalishi jadvali

9.1. Aksiya mukofot jamg'armasi faqat Tashkilotchi mablag'lari hisobiga shakllantiriladi va pul mukofotlari, smartfonlar va bosh mukofot – BYD Song Plus DM-i avtomobilini o'z ichiga oladi.

9.2. Aksiya doirasida: 6 (olti)ta iPhone Air smartfoni, 60 (oltmish)ta har biri 1 000 000 so'mlik pul mukofoti, shuningdek 1 (bitta) BYD Song Plus DM-i avtomobili o'ynaladi.

9.3. Smartfonlarning aniq xarakteristikasi, komplektatsiyasi, rangi, modeli, xotira sig'imi, avtomobilning komplektatsiyasi, shuningdek pul ko'rinishida bo'lmagan mukofotlarning boshqa parametrlari Tashkilotchi tomonidan, xarid sanasida mukofotlarning amalda mavjudligidan kelib chiqib belgilanadi. G'olibning istagiga ko'ra pul ko'rinishida bo'lmagan mukofotlar pulga almashtirib berilmaydi.

9.4. Pul ko'rinishida bo'lmagan mukofotlarning bozor qiymati Tashkilotchi tomonidan yetkazib beruvchining hujjatlari, hisob, shartnoma, yuknoma yoki xarid qilingan sanaga mukofotning qiymatini tasdiqlovchi boshqa hujjat bilan belgilanadi.

Bosqich	Qatnashish muddati	Efir sanasi	Mukofotlar
1	15.07.2026 – 24.07.2026	29.07.2026	iPhone Air - 1 nafar g'olib, 1 000 000 so'm pul mukofoti - 10 nafar g'olib
2	25.07.2026 – 03.08.2026	06.08.2026	iPhone Air - 1 nafar g'olib, 1 000 000 so'm pul mukofoti - 10 nafar g'olib
3	04.08.2026 – 13.08.2026	18.08.2026	iPhone Air - 1 nafar g'olib, 1 000 000 so'm pul mukofoti - 10 nafar g'olib
4	14.08.2026 – 23.08.2026	26.08.2026	iPhone Air - 1 nafar g'olib, 1 000 000 so'm pul mukofoti - 10 nafar g'olib
5	24.08.2026 – 02.09.2026	07.09.2026	iPhone Air - 1 nafar g'olib, 1 000 000 so'm pul mukofoti - 10 nafar g'olib
6	03.09.2026 – 12.09.2026 (yakuniy)	19.09.2026	iPhone Air - 1 nafar g'olib, 1 000 000 so'm pul mukofoti - 10 nafar g'olib; Superpriz BYD Song Plus DM-i avtomobili – 1 dona.

9.5. Jadvalga Tashkilotchi tomonidan aniqlashtirishlar kiritilishi mumkin. Yutuq o'ynalishlarining dolzarb sanalari va vaqti Tashkilotchining rasmiy resurslari va/yoki @HumoNestBot'da joylashtiriladi.

9.6. Avtomobilning yakuniy o'ynalishi jadvalda ko'rsatilgan sanada yoki Tashkilotchi e'lon qilgan boshqa sanada o'tkaziladi. Yakuniy yutuq o'ynalishi qatnashchilarining tarkibi Tashkilotchi tomonidan Ofertada va Aksiya axborot materiallarida e'lon qilingan qoidalarga ko'ra aniqlanadi. Yakuniy avtomobil o'ynalishida 2026-yil 15-iyuldan 2026-yil 12-sentyabrgacha (shu kun ham kiradi) bo'lgan muddatda amalga oshirilgan barcha hisobga olinuvchi amaliyotlar bo'yicha shakllantirilgan barcha imkoniyatlar qatnashadi. Yakuniy yutuq o'ynalishi uchun alohida ro'yxat e'lon qilinmaydi, imkoniyatlar ro'yxati esa, aksiyaning har bir bosqichi yakunlangach va to navbatdagi yutuq o'ynalishi bosqichi boshlanguniga qadar @HumoNestBot'da ommaviy e'lon qilingan oldingi 6 ta ro'yxatdan tashkil topadi. Yakuniy yutuq o'ynalishining boshqa modeli qabul qilinmaydi.

10. Ommaviy yutuq o'ynalishini o'tkazish tartibi

10.1. Yutuq o'ynalishlari ommaviy tarzda jonli efirda Tashkilotchining rasmiy axborot resurslarida, jumladan ijtimoiy tarmoqlarda va/yoki tegishli efir boshlanishidan oldin Tashkilotchi tomonidan ko'rsatilgan videoplatformada amalga oshiriladi.

10.2. G'oliblarni aniqlash random.org servisidan foydalangan holda tasodifiy tanlash usuli bilan amalga oshiriladi. Yutuq o'ynalishi uchun qatnashchilarning yakuniy ro'yxatiga va yutuq o'ynalishiga qo'yilgan imkoniyatlar soniga muvofiq tartib raqamlari diapazoni qo'llaniladi.

10.3. Efir boshlanishidan oldin Komissiya qatnashchilarning yakuniy ro'yxatini, ruxsat berilgan imkoniyatlar umumiy sonini, random.org uchun raqamlar diapazonini, o'ynaladigan mukofotlar ro'yxati hamda asosiy va zaxiraviy g'oliblarni aniqlash tartibini qayd etadi.

10.4. Jonli efirda Tashkilotchining vakili qatnashchilar/imkoniyatlar sonini, raqamlar diapazonini, random.org interfeysini va tasodifiy tanlash natijasini namoyish etadi. Texnik imkoniyat mavjud bo'lganda, random.org aks etgan ekran tomoshabinlar tasodifiy raqam generatsiyasi jarayonini ko'rishlari mumkin bo'ladigan qilib namoyish etiladi.

10.5. G'olib random.org generatsiyalagan raqam orqali aniqlanadi. Tashkilotchi generatsiyalangan raqamni qatnashchilarning yakuniy ro'yxatidagi tegishli yozuv bilan solishtiradi.

10.6. Agar Aksiyaning istalgan bosqichining yakuniga ko'ra pul yoki pul ko'rinishida bo'lmagan mukofot (Aksiyaning bosh mukofoti – avtomobil bundan mustasno) mukofotni olishdan yozma bosh tortish, yutuqning bekor qilinishi yoki ushbu Ofertada ko'zda tutilgan boshqa asoslar bo'yicha g'olibga taqdim etilmagan bo'lsa, bunday mukofot Aksiya yakuniy yutuq o'ynalishi mukofot jamg'armasiga qo'shiladi.

Bunday mukofotlarning takroriy o'ynalishi yakuniy yutuq o'ynalishi bilan bir vatqda, ushbu Ofertada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

10.6.1. Yakuniy yutuq o'ynalishi natijalari chop etilgandan va aksiya bosh mukofoti (avtomobil) g'olibi e'lon qilingandan keyin 30 kalendar kun o'tgach, ushbu Ofertada ko'zda tutilgan asoslarga ko'ra bosh mukofot bekor qilinganda, Tashkilotchi boshqa mukofot (avtomobil)ning zaxiraviy g'olibini aniqlash maqsadida qo'shimcha yutuq o'ynalishini o'tkazadi.

Qo'shimcha yutuq o'ynalishi Aksiyaning № 1-5-yutuq o'ynalishini o'tkazish tartibiga o'xshash tartibda amalga oshiriladi. Qo'shimcha yutuq o'ynalishini o'tkazish sanasi, vaqti va tartibi to'g'risidagi axborot uning o'tkazilishi sanasidan kamida 7 kalendar kun oldin Tashkilotchining bir yoki bir necha rasmiy axborot manbalarida chop etiladi.

10.7. Agar bitta yutuq o'ynalishi doirasida oldin ushbu yutuq o'ynalishining boshqa mukofotida g'olib deb topilgan yozuv takroran tushib qolsa, Komissiya darhol, to yangi noyob yozuvga ega bo'lguncha takroriy generatsiyani o'tkazishi lozim.

10.8. Agar mukofot jamg'armasini adolatli taqsimlash uchun zarur bo'lsa, Tashkilotchi bir Qatnashchi bir bosqich doirasida bittadan ko'p bo'lmagan mukofot olishi mumkinligini belgilash huquqiga ega. Bunda, agar Tashkilotchi tomonidan boshqa holat ko'rsatilmasa, Aksiya shartlari bajarilganda keyingi bosqichlarda qatnashish saqlanib qoladi.

10.9. Har bir yutuq o'ynalishi yakuniga ko'ra Komissiya bayonnoma tuzadi, unda efir sanasi va vaqti, Komissiya tarkibi, raqamlar diapazoni, qatnashchilar/imkoniyatlar soni, random.org tomonidan generatsiyalangan raqamlar, asosiy va zaxiraviy g'oliblar, shuningdek boshqa muhim jihatlar qayd etiladi.

10.10. Jonli efirning videoyozuvi Tashkilotchi tomonidan saqlab qolinishi va yutuq o'ynalishining shaffofligini tasdiqlash, Qatnashchilar murojaatlarini ko'rib chiqish va ichki nazorat uchun ishlatilishi mumkin.

10.11. Agar jonli efir davomida texnik nosozlik, jumladan translyatsiyaning uzilishi, random.org'ga ulanib bo'lmilik, internet-ulanishdagi uzilish, ma'lumotlar aks etilishidagi xatolar yoki boshqa texnik hodisa ro'y bersa, Komissiya bu fakti qayd etadi va yutuq o'ynalishini to'liq yoki tegishli qismini to'xtatib turish, ko'chirish, takrorlash huquqiga ega.

10.12. random.org'ga ulanib bo'lmaganda Tashkilotchi yutuq o'ynalishini boshqa sanaga ko'chirishi yoki, bu qarorni Komissiya bayonnomasida qayd etish va rasmiy resurslarda tegishli axborotni chop etish sharti bilan, boshqa, shu darajada shaffoflikni ta'minlovchi ommaviy ochiq tasodifiy sonlar generatoridan foydalanishi mumkin.

10.13. Yutuq o'ynalishi natijalari G'oliblar Tashkilotchi tomonidan tekshirilganiga qadar birlamchi deb sanaladi. Tashkilotchi G'olibning Oferta shartlariga muvofiqligini, kartaning tegishli ekanini telefon raqamining amaldaligini, diskvalifikatsiya uchun asos yo'qligini va yutuq chiqqan imkoniyat hisoblangan amaliyotning to'g'riligini tekshirish huquqiga ega.

10.14. Yakuniy natijalar tekshirish yakunlangandan keyin Ofertaning 11-bo'limida belgilangan tartibda chop etiladi.

11. G'oliblarni aniqlash, xabardor qilish va e'lon qilish

11.1. G'olib Ofertaning barcha talablariga muvofiqligi sharti bilan, yutuq o'ynalishi davomida aniqlangan yutuq chiqqan imkoniyat hisoblangan HUMO kartasining sohibi g'olib sanaladi.

11.2. Yutuq o'ynalgandan keyin Tashkilotchi G'olibni qo'shimcha tekshiradi, jumladan amaliyot, karta, bog'langan telefon raqami, G'olibning yoshi, qatnashishga cheklovlar mavjud emasligi, qalloblik yoki Aksiya mexanikasini suiistexmol qilish belgilari mavjud emasligi tekshiriladi.

11.3. Bosh mukofotni taqdim etish uchun Tashkilotchi jonli efirda g'olib bo'lgan HUMO kartasiga bog'langan telefon raqamiga uch marta telefon qo'ng'irog'ini amalga oshiradi. Bunday raqam amalda bo'lishi va O'zbekiston Respublikasida ro'yxatga olingan bo'lishi lozim.

11.4. Agar bosh mukofot g'olibi e'lon qilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida Tashkilotchi g'olib bo'lgan HUMO kartasiga bog'langan telefon raqamiga uch marta telefon qo'ng'irog'ini amalga oshirgandan keyin g'olib bilan bog'lana olmasa yoki g'olib Tashkilotchi bilan aloqaga chiqmasa, bosh sovrinni olishdan voz kechsa, uni olish uchun kerakli hujjatlarni taqdim

qilmasa yoki yutuq ushbu Ofertada ko'zda tutilgan asoslarga ko'ra bekor qilinsa, bosh sovrinni olish huquqi qo'shimcha yutuq o'ynalishida aniqlangan zaxiraviy g'olibga o'tkaziladi. Zaxiraviy g'olib xabar berilgan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kuni mobaynida Tashkilotchi bilan aloqaga chiqishi va bosh mukofotni olish uchun zaruriy hujjatlarni taqdim etishi lozim. Agar zaxiraviy g'olib ham ko'rsatilgan talablarni bajarmasa yoki uning yutug'i bekor qilinsa, Tashkilotchi boshqa mukofotning takroriy o'ynalishini o'tkazadi. Takroriy yutuq o'ynalishi ushbu Oferta shartlariga muvofiq keluvchi g'olib aniqlanib, unga bosh mukofot topshirilguniga qadar o'tkaziladi.

11.5. Qo'shimcha ravishda, Tashkilotchi @HumoNestBot, SMS, push-xabarnoma, rasmiy kanallar va/yoki Tashkilotchi foydalanish imkoniga ega boshqa aloqa vositalari orqali xabarnomalar yo'llash huquqiga ega.

11.6. Shaffoflik va xavfsizlik yuzasidan g'oliblar ro'yxati mavhumlashtirilgan shaklda chop etiladi. Nashrlar qisman ko'rsatilgan karta raqami, noyob ID-yozuv, bosqich raqami, mukofot turi, yutuq o'ynalishi sanasi va/yoki boshqa shaxssizlashtirilgan axborotni o'z ichiga olishi mumkin.

11.7. G'oliblarning to'liq shaxsga doir ma'lumotlari, telefonlar raqamlari, kartalarning to'liq raqamlari, pasport ma'lumotlari va boshqa maxfiy ma'lumotlar e'lon qilinmaydi. To'liq axborot faqat identifikatsiya, mukofotni topshirish, soliq hisobi va qonunchilik talablarini bajarish uchun qo'llaniladi.

11.8. Qatnashchilar va g'oliblar ro'yxatini tekshirish uchun Qatnashchi @HumoNestBot'da ro'yxatdan o'tishi va telefon raqamini tasdiqlashi lozim. Shuningdek, Tashkilotchi Aksiya lendingi va rasmiy resurslarda ham mavhumlashtirilgan ro'yxatlarni joylashtirish huquqiga ega.

11.9. Agar Qatnashchining kartasi g'oliblarning chop etilgan ro'yxatida bo'lsa-yu lekin Qatnashchi bilan bog'lanishmasa, Qatnashchi mustaqil ravishda 1114 raqamiga yoki quyidagi manzil bo'yicha Tashkilotchining ofisiga murojaat qilishi mumkin: Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 178/1 (ish kunlari). G'olibning mustaqil murojaat qilishining muddati tegishli yutuq o'ynalishi g'oliblarining yakuniy hisobi Tashkilotchi rasmiy resurslarida ilk e'lon qilingan kundan boshlab 30 kalendar kunni tashkil qiladi.

12. Hujjatlarni taqdim etish va mukofotlarni olish tartibi

12.1. Mukofotlarni olishga umumiy talablar

12.1.1. Har qanday mukofotni olish uchun G'olib Tashkilotchiga shaxsni identifikatsiyalash, karta mansubligini tasdiqlash, mukofotni berishni rasmiylashtirish va Tashkilotchining soliq majburiyatlarini bajarish uchun tegishli yutuq o'ynalishi g'oliblarining yakuniy hisobi Tashkilotchi rasmiy resurslarida ilk e'lon qilingan kundan boshlab 30 kalendar kundan kechiktirmay taqdim etishi lozim.

12.1.2. Hujjatlarning bazaviy komplektiga quyidagilar kiradi: O'zbekiston Respublikasi fuqarosi pasporti yoki ID-kartasining asli, JSHSHIR, yutuq chiqqan HUMO kartasi haqida ma'lumot, kartaning G'olibga mansub ekanining tasdig'i, shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash uchun ariza/rozilik va Tashkilotchi tomonidan oqilona hajmda so'raladigan boshqa hujjatlar.

12.1.3. Mukofotni olishda barcha G'oliblar tomonidan mukofotni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolanadi. Dalolatnomaning imzolanishi mukofot olingani, Tashkilotchiga mukofotning miqdori, ko'rinishi va holati bo'yicha e'tiroz mavjud emasligi faktining tasdig'i sanaladi (agar dalolatnomada boshqa holat ko'rsatilgan bo'lmasa).

12.1.4. Agar Tashkilotchi bilan boshqa holat yozma ravishda kelishilgan bo'lmasa, G'olib mukofotni shaxsan kelib olishi lozim. Tegishli ishonchnoma bo'lmaganda va G'olibni ishonchli identifikatsiyalash imkonsiz bo'lganda Tashkilotchi G'olibning vakiliga mukofotni berishni rad etish huquqiga ega.

12.2. Pul mukofotlari

12.2.1. Pul mukofotlari, G'olib Tashkilotchiga identifikatsiyalash, to'lovni rasmiylashtirish va soliq majburiyatlarini bajarish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni taqdim etganidan keyin, 15 ish kuni mobaynida G'olibning HUMO kartasiga o'tkaziladi.

12.2.2. Pul mukofoti G'olibning yutuq chiqqan imkoniyat hisoblangan kartasiga yoki, yutuq chiqqan kartaga o'tkazish texnik jihatdan imkonsiz bo'lsa, G'olibning Tashkilotchi bilan kelishilgan boshqa HUMO kartasiga o'tkaziladi.

12.2.3. Pul mukofotini o'tkazish muddati G'olib tomonidan Tashkilotchi uchun zarur to'liq va to'g'ri hujjatlar komplekti taqdim etilgandan keyin sanala boshlanadi.

12.2.4. Agar G'olib hujjatlarni taqdim etmagan bo'lsa, ishonchsiz hujjatlar taqdim etgan bo'lsa, hujjatlarni taqdim etishdan bosh tortgan bo'lsa yoki identifikatsiyadan o'tmagan bo'lsa, Tashkilotchi yutuqni bekor qilishi va mukofotni zaxiraviy g'olibga berishi mumkin.

12.3. Smartfonlar

12.3.1. Smartfonlar G'oliblarga G'olib tomonidan barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) ish kuni ichida Tashkilotchining Toshkent shahri, Maxtumquli ko'chasi, 178/1 manzilida joylashgan ofisida topshiriladi.

12.3.2. Smartfonlarni topshirish sanasi va vaqti dastlab G'olib bilan telefon, @HumoNestBot, SMS yoki boqsha imkoni bor aloqa kanali orqali kelishib olinadi.

12.3.3. Smartfonni olish uchun G'olibning shaxsan o'zi kelishilgan sana va vaqtda Tashkilotchining ofisiga kelishi, yonida pasport yoki ID-kartaning asli bo'lishi, kerakli ma'lumotlarni taqdim etishi va mukofotni topshirish-qabul qilish dalolatnomasini imzolashi zarur.

12.3.4. Tashkilotchi G'olibning yo'lkira, aloqa, yashash, ovqatlanish, ishonchnomani rasmiylashtirish, hujjatlarni olish yoki mukofotni olish bilan bog'liq boshqa xarajatlarini qoplab berish majburiyatiga ega emas.

12.4. Avtomobil

12.4.1. Bosh mukofot – BYD Song Plus DM-i avtomobili – barcha zaruriy hujjatlar taqdim etilgandan keyin 15 kun ichida G'olibga naturada taqdim etiladi va pul mukofotiga yoki G'olibning istagiga ko'ra boshqa sovringa almashtirib berilmaydi.

12.4.2. Agar G'olibning manzili Toshkent shahri va Toshkent viloyati chegarasida bo'lsa, G'olib Tashkilotchiga yetkazib beriladigan manzil, yetkazib berishning afzal sanasi va vaqti, shuningdek avtomobilni topshirishni tashkil etish uchun zarur boshqa ma'lumotlar aniq ko'rsatilgan yozma arizani oldindan taqdim etishi sharti bilan, avtomobil G'olibning uyiga yetkazib berilishi mumkin.

12.4.3. Toshkent shahri va Toshkent viloyati chegarasida avtomobilni yetkazib berish faqat Tashkilotchi bilan sana va vaqti kelishilgandan keyin, avtomobilni taqdim etish vaqtida G'olibda shaxsni tasdiqlovchi hujjat – pasport yoki ID-kartaning asli mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

12.4.4. Agar G'olibning manzili Toshkent viloyatidan tashqarida bo'lsa, G'olib Tashkilotchi bilan qabul qilib olish sanasi va vaqtini oldindan kelishib olib, shaxsni tasdiqlovchi hujjat – pasport yoki ID-karta yonida bo'lgan holda, avtomobilni quyidagi manzildan mustaqil olib ketishi shart: Toshkent sh., Maxtumquli ko'ch., 178/1.

12.4.5. Avtomobilni topshirish topshirish-qabul qilish dalolatnomasi bilan tasdiqlanadi, u G'olib va Tashkilotchining vakolatli vakili tomonidan imzolanadi. Avtomobilga oid mulkchilik huquqi va xatarlari topshirish-qabul qilish dalolatnomasi imzolangan vaqtdan boshlab G'olibga o'tadi (agar qonunchilik yoki transport vositasini ro'yxatga olish bilan bog'liq hujjatlarda boshqa holat talab qilinmasa).

12.4.6. Avtomobil topshirilgandan keyingi G'olibning harakatlari bilan bog'liq xarajatlar, jumladan uni tasarruf etish, sug'urtalash, ro'yxatdan o'tkazish, jarimalar, topshirilgan joydan tashib ketish va boshqa xarajatlarni G'olib o'z zimmasiga oladi (agar Tashkilotchi tomonidan boshqa holat to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lmasa).

12.5. Mukofot uchun murojaat qilish va yutuqni bekor qilish muddati

12.5.1. G'olib Tashkilotchi belgilagan muddatlarda Tashkilotchi bilan aloqaga chiqishi, hujjatlarni taqdim etishi va/yoki mukofotni olish uchun kelishi shart.

12.5.2. Agar tegishli yutuq o'ynalishi g'oliblarining yakuniy ro'yxati Tashkilotchi rasmiy resurslarida e'lon qilingan kundan boshlab 30 kalendar kun mobaynida Tashkilotchi G'olib bilan yutuq chiqqan kartaga bog'langan telefon orqali bog'alana olmasa va agar G'olib Tashkilotchi bilan 1114 raqami orqali mustaqil bog'lanmasa yoki Toshkent sh. Maxtumquli ko'ch., 178/1 manzilidagi Tashkilotchining ofisiga ish soatlarida murojaat qilmasa, yutuq bekor qilingan sanaladi.

12.5.3. Yutuq bekor qilinganda mukofot yutuq o'ynalishi bayonnomasida belgilangan ketma-ketlik tartibida zaxiraviy g'olibga beriladi yoki Tashkilotchi tomonidan Oferta va Tashkilotchining ichki hujjatlariga muvofiq tasarruf etiladi.

12.5.4. G'olibning mukofotdan voz kechishi, hujjatlarni taqdim etmaslik, ishonchsiz hujjatlarni taqdim etish, kelishilgan sana va vaqtga kelmaslik, G'olibni identifikatsiyalashning yoki qatnashishni cheklashni aniqlashning imkonsizligi yutuq bekor qilinishi uchun asos bo'ladi.

13. Soliqqa tortish

13.1. Aksiya doirasida pul va pul ko'rinishida bo'lmagan mukofotlarni olish tufayli G'olibda yuzaga keladigan jismoniy shaxslar daromad solig'i Tashkilotchi (MBPM) tomonidan o'z mablag'lari hisobiga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan tartibda to'lanadi.

13.2. Tashkilotchi Aksiya doirasida to'lanadigan va/yoki taqdim etiladigan mukofotlar bo'yicha amaldagi qonunchilikda belgilangan holatlarda va chegarada soliq agenti bo'lib qatnashadi.

13.3. Soliq majburiyatlarini bajarish uchun Tashkilotchi G'olibdan shaxsga doir ma'lumotlarni, pasport ma'lumotlarini, JSHSHIR, karta to'g'risidagi ma'lumotlarni, arizalar, rozilik va mukofotni to'lash/berishni to'g'ri rasmiylashtirish hamda soliq hisobi uchun zarur boshqa hujjatlarni so'rash huquqiga ega.

13.4. G'olib tomonidan soliq rasmiyatchiligi uchun zaruriy hujjatlarning taqdim etilmasligi mukofotni berishni rad etish va/yoki yutuqni bekor qilish uchun asos bo'ladi.

13.5. Agar mukofot olingandan keyin G'olibda qo'shimcha soliq, ro'yxatga olish yoki Tashkilotchi to'laydigan JSHDSga bog'liq bo'lmagan boshqa majburiyatlar yuzaga kelsa, bunday majburiyatlarni G'olib mustaqil ado etadi (agar qonunchilikda yoki Tashkilotchining yozma qarorida boshqa holat ko'zda tutilgan bo'lmasa).

14. Shaxsga doir ma'lumotlar

14.1. Ofertada ko'zda tutilgan harakatlarni amalga oshirish bilan Qatnashchi Tashkilotchiga Aksiyani o'tkazish, qatnashishni tekshirish, qatnashchilar ro'yxatini shakllantirish, yutuq o'ynalishini o'tkazish, G'oliblarni aniqlash va xabardor qilish, mukofotlarni topshirish, mavhumlashtirilgan natijalarni chop etish, soliq hisobi va murojaatlarni ko'rib chiqish maqsadlarida shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga rozilik beradi.

14.2. Qayta ishlanadigan shaxsga doir ma'lumotlarga quyidagilar kirishi mumkin: F.I.SH., tavallud sanasi, pasport ma'lumotlari yoki ID-karta ma'lumotlari, JSHSHIR, telefon raqami, HUMO kartasi mavhumlashtirilgan rekvizitlari, amaliyotlar to'g'risidagi ma'lumotlar, yutuq to'g'risidagi ma'lumot, avtomobilni yetkazib berish manzili, mukofotni topshirishdagi foto- va videomateriallar, shuningdek Aksiya maqsadlari uchun zaruriy boshqa ma'lumotlar.

14.3. Shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlash O'zbekiston Respublikasining shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchiligiga va Tashkilotchining ichki siyosatiga muvofiq amalga oshiriladi.

14.4. Tashkilotchi g'oliblar ro'yxatini va, zarur bo'lganda, qatnashchilar ro'yxatini faqat Aksiya shaffofligi uchun va qatnashishni mustaqil tekshirish uchun yetarli bo'lgan, lekin shaxsga doir ma'lumotlar to'liq mavhumlashtirilgan yoki shaxssizlantirilgan shaklda chop etadi.

14.5. G'olib unga mukofot taqdim etilayotganda foto- va videosuratga olishga hamda Tashkilotchi tomonidan tegishli materiallardan axborot va reklama maqsadlarida foydalanilishiga, jumladan, agar G'olib qonunchilik yo'l qo'yadigan holatlarda asosli rad etish yo'llamasa, Tashkilotchining rasmiy resurslarida chop etilishiga rozilik bildiradi.

14.6. G'olibning identifikatsiyalash, mukofotni taqdim etish, soliq rasmiyatchiligi yoki qonunchilik talablarini bajarish uchun zarur shaxsga doir ma'lumotlarni taqdim etishdan bosh tortishi mukofotni berishni rad etish va/yoki yutuqni bekor qilish uchun asos bo'ladi.

15. Diskvalifikatsiya, natijalarni tekshirish va bekor qilish

15.1. Oferta shartlar bilan nomuvofiqlik, ishonchsiz ma'lumotlar, amalda bo'lmagan telefon raqami, raqamning kartaga bog'langani eskirganligi, kartani tasarruf etish huquqi yo'qligi, amaliyot bekor qilingani, qaytarilgani, texnik takrorlash, qalloblik yoki Aksiya mexanikasini suiiste'mol qilish holatlari aniqlanganda, Tashkilotchi Qatnashchining mukofotga da'vogarlar safidan chiqarish yoki yutuqni bekor qilish huquqiga ega.

15.2. Amaliyotlarni sun'iy bo'lish, til birlashtirish, texnik chelkovlarni aylanib o'tishga urinish, begona kartalar yoki telefon raqamlaridan foydalanish, yolg'on ma'lumotlarni taqdim etish, ma'lumotlarni tekshirish uchun to'siqlar yaratish va asossiy afzallikka ega bo'lishga qaratilgan boshqa harakatlar Aksiya mexanikasini suiiste'mol qilish deb hisoblanishi mumkin.

15.3. Agar natijalar e'lon qilingandan keyin G'olib Tashkilotchining xodimi yoki uning yaqin qarindoshi ekani aniqlansa, yutuq bekor qilinadi, mukofot takroran yakuniy bosqichda o'ynaladi, bosh sovrin, ushbu Ofertada ko'zda tutilgan holatlarda, zaxiraviy g'olibga beriladi.

15.4. Agar natijalar e'lon qilingandan keyin yutuq chiqqan amaliyot bekor qilingani, qaytarilgani, bahslashilgani, qalloblik yoki xato deb topilgani yoki Oferta shartlariga nomuvofiqligi aniqlansa, Tashkilotchi tegishli G'olibga nisbatan natijani bekor qilish huquqiga ega.

15.5. Tashkilotchi qonunchilik ruxsat bergan chegarada emitent-banklar, protsessing tizimlari, ichki bo'linmalar, xavfsizlik xizmatlari, komplaens bo'linmalari va boshqa vakolatli shaxslarni jalb qilgan holda Qatnashchilar va G'oliblarni qo'shimcha tekshirishni o'tkazishi mumkin. Tekshiruv o'tkazilishi davrida Tashkilotchi, Qatnashchiga biror kompensatsiya yoki zararni qoplash ko'rinishida to'lov borasida majburiyat yuzaga kelmagan holda mukofotni berishni to'xtatib turishga haqlidir.

15.6. Qatnashchini istisno qilish, G'olibni diskvalifikatsiya qilish yoki yutuqni bekor qilish Tashkilotchi tomonidan ichki hujjatda, Komissiya bayonnomasida yoki bunday qarorni asosli ekanini tasdiqlash uchun yetarli boshqa hujjatda qayd etiladi.

16. Tomonlar huquqlari va javobgarliklari

16.1. Tashkilotchi obyektiv sabablar, jumladan texnik nosozliklar, fors-major, qonunchilik talablari, davlat idoralarining qarorlari, bank yoki protsessing tizimlaridagi uzilishlar, shuningdek Aksiya xavfsizligiga va shaffofligiga ta'sir ko'rsatuvchi holatlar yuzaga kelganda, Aksiya shartlarini o'zgartirish va to'ldirish, Aksiyani to'xtatib turish yoki muddatidan oldin tugatish huquqiga ega.

16.2. Tashkilotchi istalgan shaxsga ushbu Ofertaga Axborot hamkori sifatida qo'shilishni rad etish yoki ushbu Oferta shartlari buzilganda, Axborot hamkori maqomini bekor qilish huquqiga ega.

16.3. Aksiya shartlariga o'zgartishlar, agar Tashkilotchi tomonidan kuchga kirishning boshqa sanasi ko'rsatilgan bo'lmasa, Tashkilotchining rasmiy resurslarida va/yoki @HumoNestBot'da chop etilgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi.

16.4. Tashkilotchi qalloblikning oldini olishga, shaxsga doir ma'lumotlarni himoyalashga, qatnashchilar ro'yxatini to'g'ri shakllantirishga va yutuq o'ynalishining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha texnik cheklovlar va tekshirish taomillarini kiritish huquqiga ega.

16.5. Tashkilotchi banklar, aloqa operatorlari, Telegram, internet-provayderlar, to'lov tizimlari, random.org, ijtimoiy tarmoqlar, videoplatformalar, shuningdek uchinchi shaxslar faoliyatidagi uzilishlar uchun, agar bu uzilishlar Tashkilotchining oqilona nazoratidan tashqarida bo'lsa, javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

16.6. Tashkilotchi ishonchsiz ma'lumotlar, ishlamaydigan telefon raqami, emitent-bank xatosi, Telegramdan foydalanish cheklanganligi, internet yo'qligi yoki Qatnashchidan yoxud uchinchi shaxsga bog'liq boshqa holatlar oqibatida Qatnashchining qatnashishni tekshira olmasligi,

xabarnoma ololmasligi, qo'llab-quvvatlashga murojaat qilolmasligi yoki mukofot ololmasligi uchun javobgarlikka ega emas.

16.7. Qatnashchi taqdim etilayotgan ma'lumotlarning ishonchiligi, telefon raqamining ishlashi, kartaning mansubligi, hujjatlarning o'z vaqtida taqdim etilishi, Oferta shartlariga rioya etilishi va Aksiya to'g'risidagi axborotni mustaqil kuzatib borishi uchun javobgardir.

16.8. Qatnashchi @HumoNestBot, Aksiya lending va/yoki Tashkilotchining rasmiy resurslari orqali Aksiya to'g'risidagi axborotni, qatnashchilar va g'oliblar ro'yxatlarini mustaqil tekshirishi shart.

16.9. Tashkilotchi Qatnashchining Aksiyada qatnashish, qo'llab-quvvatlashga murojaat qilish, hujjatlarni olish, mukofot uchun borish, yashash, aloqa yoki boshqa yondosh sarflar bilan bog'liq xarajatlarini, agar Ofertada boshqa holat to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilgan bo'lmasa, kompensatsiyalamaydi.

16.10. Axborot hamkori Tashkilotchi taqdim etgan axborot materiallaridan foydalanish, Aksiya to'g'risidagi axborotni o'z axborot resurslarida joylashtirish, Aksiya Axborot hamkori maqomidan foydalanish huquqiga ega.

16.11. Axborot hamkori faqat Tashkilotchi taqdim etgan yoki u bilan kelishilgan materiallardan foydalanishi, joylashtirishda Aksiya shartlariga o'zgartirish kiritmasligi, qatnashchilar murojaatlari kelib tushganda ularni Tashkilotchiga yo'llashi, ushbu Oferta talablariga rioya etishi shart.

16.12. Axborot hamkori Aksiya o'tkazilishi, uning asosiy shartlari, o'tkazilish muddatlari va qatnashish tartibi to'g'risidagi axborotni Axborot hamkori xodimlarining mijozlarini xabardor qilish orqali HUMO kartalarining potensial sohiblariga yetkazishni ta'minlash majburiyatini zimmasiga oladi.

16.13. Axborot hamkori tomonidan ushbu Ofertaga yoki Tashkilotchi taqdim etgan materiallarga muvofiq kelmaydigan axborot tarqatilgan holda, Axborot hamkori mustaqil ravishda bunday harakatlar oqibati uchun javobgar bo'ladi va Tashkilotchining talabiga ko'ra, yo'l qo'yilgan qoidabuzarlikni darhol bartaraf etishi shart.

16.14. Axborot hamkori maqomi bekor qilingandan va Aksiya amal qilish muddati yakunlangandan keyin Axborot hamkori HUMO tovar belgisidan, Aksiya xos uslubidan va Tashkilotchining intellektual mulkining boshqa obyektlaridan foydalanish huquqiga ega bo'lmaydi.

17. Fors-major va munozaralarni hal qilish

17.1. Tashkilotchi Oferta bo'yicha majburiyatlarning to'liq yoki qisman bajarilmaganligi uchun, agar bunday bajarmaslik yengib bo'lmas kuch, jumladan tabiiy ofatlar, yong'in, suv bosishi, harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, epidemiya, karantin cheklovlari, davlat idoralari qarorlari, infratuzilmadagi nosozliklar, qonunchilikdagi salmoqli o'zgarishlar va Tashkilotchining irodasiga bog'liq bo'lmagan boshqa holatlar tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

17.2. Yengib bo'lmas kuch holati yuzaga kelganda Tashkilotchi, rasmiy resurslarda tegishli axborotni chop etgan holda, Aksiya o'tkazilishi muddatlarini o'zgartirish, yutuq o'ynalishini boshqa muddatga ko'chirish, mukofotlarni taqdim etish tartibini o'zgartirish, Aksiyani to'xtatib turish yoki uni muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega.

17.3. Aksiyani o'tkazishga, Aksiyada qatnashishga, g'oliblarni aniqlashga, mukofotlarni topshirishga yoki Ofertani bajarishga bog'liq barcha munozaralar va kelishmovchiliklar muzokaralar yo'li bilan va Qatnashchining Tashkilotchi qo'llab-quvvatlash xizmatiga murojaat qilishi orqali hal etiladi.

17.4. Munozarani hal qilishning e'tirozli tartibi majburiydir. Murojaatlar @HumoNestBot orqali, 1114 raqami orqali, Toshkent sh. Maxtumquli ko'ch., 178/1 manzilidagi Tashkilotchi ofisiga yoki Tashkilotchi ko'rsatgan boshqa usulda yuborilishi mumkin.

17.5. Kelishuvga erishilmaganda munozara amaldagi qonunchilikka muvofiq O'zbekiston Respublikasi vakolatli sudiga ko'rib chiqish uchun taqdim etiladi.

18. Yakuniy qoidalar va Tashkilotchilar rekvizitlari

18.1. HUMO tovar belgilari, Aksiya logotiplari, xos uslub, reklama materiallaridan faqat Axborot hamkori maqomi amal qilishi muddatida va faqatgina Aksiyani ilgarilatish maqsadlarida foydalanishga ruxsat beriladi.

Tashkilotchi istalgan paytda Axborot hamkor tomonidan tovar belgilari, logotiplar, reklama materiallari va Aksiya bilan bog'liq boshqa intellektual mulk obyektlaridan foydalanishni to'xtatishni talab qilish huquqiga ega. Bunday talab darhol bajarilishi lozim.

18.2. Ushbu Ofertada hal qilinmagan barcha masalalar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

18.3. Oferta Tashkilotchining rasmiy resursida/Aksiya lendingida chop etilgan sanadan kuchga kiradi va Aksiya to'liq yakunlanishiga qadar, jumladan g'oliblarni tekshirish, mukofotlarni topshirish, soliq rasmiyatchiligi va murojaatlarni ko'rib chiqish davrida amal qiladi.

18.4. Aksiya to'g'risidagi axborot, to'liq qoidalar, yutuqlar o'ynalishi jadvali, qatnashchilar va g'oliblar ro'yxatlari Ofertada ko'zda tutilgan hajmda @HumoNestBot orqali, Aksiya lendingi va/yoki Tashkilotchining rasmiy resurslarida taqdim etilgan.

18.5. Agar Ofertaning biror-bir qoidasi kuchga ega emas deb topilsa, bu Ofertaning boshqa qoidalarining amal qilishiga ta'sir ko'rsatmaydi.

18.6. Tashkilotchi Aksiya materiallarini, jumladan qatnashchilar ro'yxatlarini, g'oliblar ro'yxatlarini, Komissiya bayonnomalarini, efirlar videoyozuvlarini, g'oliblar hujjatlari va topshirish-qabul qilish dalolatnomalarini qonunchilik ijrosi, ichki nazorat, audit, buxgalteriya va soliq hisobi uchun zarur muddat davomida saqlab turish huquqiga ega.

19.

Tashkilotchining rekvizitlari:

“Milliy banklararo protsessing markazi” AJ

Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 178/1- uy.

STIR: 302900674

E-mail: info@nmpc.uz tel.: (+99871) 200-08-88

Bank rekvizitlari:

h/r: 20208000700296870001

“Octobank” AJ MFO: 00980

Kol-markaz raqami: 1114

Boshqaruv raisi

U.X.Baxadirov_____